

BO'LAJAK ARHITEKTORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA QADRIYATLI YONDASHUVNING AHAMIYATI

Alyaminov Xayrulla Islamovich

Qoraqalpoq Milliy Universiteti, Arxitektura kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7443672>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadriyatli yondashuv asosida bo'ljak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy madaniy qadriyatlarni bilish faolyatini egallash, talabalarning qadriyatlarga oid bilimlarini boyitish, ularda insonga nisbatan qadriyat sifatida yondashish tajribasini shakllantirish; axloqiy tushunchalar doirasida o'zi va o'zgalarning xulq-atvorini tahlil qilish va baholashda, qadriyatli yo'nalishlarning ifodalanishiga e'tibor qaratish lozimligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: qadriyat, qadriyatli yondashuv, kasbiy kompetentlik, amaliy–dekorativ xususiyat, xram-observatoriya, Qiyat qal'a va Qirqqiz, Mizdaqhan va Guldirsin, Ayoq va Aydos qal'a.

ЗНАЧЕНИЕ ЦЕННОСТНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ АРХИТЕКТОРОВ

Аннотация. В данной статье на основе ценностного подхода в развитии профессиональной компетентности будущих архитекторов, приобретение ими опыта познавательной деятельности в области социокультурных ценностей, обогащение ценностных знаний студентов, их подхода к человеку как ценности; при анализе и оценке поведения себя и других в рамках этических понятий делается упор о необходимости ориентироваться на выражение ценностных ориентаций.

Ключевые слова: ценность, ценностный подход, профессиональная компетентность, практико-декоративная характеристика, храм-обсерватория, (Кыят-кала, Крыккыз, Миздакхан, Гульдирсин, Айёз и Айдоc-кала) древние города.

THE VALUE OF THE VALUE APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ARCHITECTS

Abstract. The article is based on the value approach in the development of professional competence of future architects, their acquisition of cognitive experience of socio-cultural values, enrichment of students' value knowledge, their approach to the person as a value; when analyzing and evaluating the behavior of themselves and others within the framework of ethical concepts the emphasis is placed on the need to orientate on the expression of the value orientations.

Keywords: value, value approach, professional competence, practical and decorative characteristic, temple-observatory, (Kyiat-kala, Krykkyz, Mizdakkhan, Guldirsin, Ayoq and Aidos-kala) ancient cities.

Respublikamizda milliy tariximiz va madaniyatimizga, intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab avaylash va boyitish, shu asosda yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda jamiyatdagi eng qimmatli, qadrlanadigan fenomen inson va uning bunyodkorlikga asoslagan faoliyatidir. Qadriyatlar jamiyatda kishilarni o'zaro hamkorlik qilishga undaydi. Uning yordamida shaxs jamiyat hayotiga uyg'inlashadi. Inson qadriyatlar

yordamida jamiyat a`zolari tomonidan ma`qullangan xulq-atvor me`yorlarini o`ziga singdiradi hamda faoliyatga kirishadi.

«Qadriyat (qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi)- voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma`naviy ahamiyatini ko`rsatish uchun qo`llaniladigan tushuncha» sifatida o`zbek xalqining izohli lug`atida e`tirof etiladi.

Qadriyatlar - borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma`naviy boyliklarining ahamiyatini ko`rsatish uchun qo`llaniladigan tushuncha. Milliy qadriyatlar—millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo`lgan jihat va xususiyatlardir.

Psixologlarning ta`biricha, shaxsni tushunish, unga qadriyatli munosabatda bo`lish uchun avvalambor uning hissiyotlarini anglash lozim. Har bir o`qituvchi talabalarni anglashi, ularda qadriyatli munosabat tajribasini samarali shakllantirishi uchun qadriyatlarining o`ziga xos jihatlari yaxshi bilishi talab qilinadi.

Umuminsoniy qadriyatlar har doim ijtimoiy madaniy munosabatlar doirasida aniqlik xarakteriga ega. SHu ma`noda ular umumiy xarakter kasb eta olmaydi. SHunga ko`ra, biz ko`p ahamiyatli bo`lgan qadriyatlarni ajratish va ularning insoniy munosabatlar doirasida tugayotgan o`rnini tavsiflashga harakat qilinamiz. SHu ma`noda qadriyatlarni yaxlit o`quv-tarbiya jarayonining asosi sifatida ko`rib chiqib, tahlil qilar ekanmiz quyidagilarni alohida ajratib ko`rsatish mumkin: insoniyatning umumiy uyi sifatida Ona zamin; har bir inson taqdirida muhim o`rin egallovchi, uning uchun betakror va yagona hisoblangan Vatan; rang-barang ijodiy xarakterdagi faoliyat mahsuli hisoblangan Bilimlar; inson o`zining moddiy-ma`naviy hayoti davomida to`plagan ulkan boylik hisoblangan Madaniyat va boshqalar.

Bo`lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda qadriyatli yondashuv alohida ahamiyatga ega. Qadriyatli yondashuv asosida bo`lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi faoliyat turlarini egallashlari talab qilinadi: ijtimoiy madaniy qadriyatlarni bilish faolyatini egallash, talabalarning qadriyatlarga oid bilimlarini boyitish, ularda insonga nisbatan qadriyat sifatida yondashish tajribasini shakllantirish; axloqiy tushunchalar doirasida o`zi va o`zgalarning xulq-atvorini tahlil qilish va baholash, bunda qadriyatli yo`nalishlarning ifodalanishiga e`tibor qaratish; qadriyatli yondashuv tajribasini ro`yobga chiqarish, bunda o`zi va o`zgalarga hurmat bilan qarash, atrofdagilarni tushunish, atrofdagilarning qiziqishlari, intilishlari, ehtiyojlariga e`tibor qaratish.

Shu o`rinda kasbiy kompetentlik tushunchasini to`qtalib o`tadigan bo`lsak: «kompetentlik» (ingl. “competence”- qobiliyat, layoqat, loyiq bo`lmoq, munosib bo`lmoq) – nazariy bilimlardan amaliy faoliyatda samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi. Mazmuniga ko`ra kompetentlik negizida kasbiy bilim, ko`nikma, malakalarni hech bir qiyinchiliksiz amaliyotda samarali, yuqori darajada qo`llay olishdan iborat harakat yotadi. SHunday ekan, biz bo`lajak arxitektorlarni qadriyatli yondashuvlar asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri dep hisoblaymiz. Har bir insonning ichki olamiga uning san`at va madaniyatga bo`lgan munosabati ta`sir ko`rsatadi. Bu o`rinda madaniyat insonning ijtimoiy xulq- atvorini belgilaydi. Uning xulq-atvorida nazokatlilik, boshqalarga nisbatan hurmat, muloyimlik o`z-hatti harakatlariga echim topish ustuvor tarzda namoyon bo`ladi.

Har bir jamiyatning o`ziga xos tarixiy davrlari mavjud. O`sha davrlar jamiyatning madaniyatida, yozuvida, mehnat qurollarida, san`atida, urf-odatlarida o`z aksini topadi. Ularning asl mohiyatini, mazmunini bilmay turib, o`lkani bilib bo`lmaydi. Har bir o`lkaning o`ziga xos

turmush tarzi, urf–odatlari, san`ati, kiyim-kechagi va til xususiyatlari urug`, qabila, elatlar etnoslaridan tashkil topganligini ko`rsatadi. Mana shu rangbaranglik xalqning turmushini hayotini go`zallashtiradi.

Taniqli qoraqalpoq olimlari X. Esbergenov, Q. Turkmenboeva, J.Darmenov, Q. Mambetkarimovlar millatimiz, o`z Ona Vatanimizni har tomonlama o`rganish uning tarixi, geografiyasi, tabiiy boyliklarini, xalqning asrlar davomida yig`ilgan moddiy, madaniy va ma`naviy qadriyatlarini o`lkashunoslik materiallari asosida bilishning vosita va metodlarini aniqlab berganlar. SHuningdek, qoraqalpoq zamonaviy arxitekturasining rivojida alohida o`ringa ega taniqli murabbiy Berdaq nomidagi davlat mukofati sovrundori O.To`reniyazov ijodini keltirib o`tish joiz.

Qaraqalpoq xalqining boshqa xalqlardan farqli ularoq o`ziga xos amaliy, tasviriy san`at, arxitektura namunalari bizga meros bo`lib qolgan. Bu merosni asrab-avaylash, ardoqlash shu zaminda yashaydigan har bir insonning burchidir. Demakki, yoshlarda olib borilayotgan badiiy-estetik tarbiya, qadriyatli yondashuv asosida bo`lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmunida shu jihatlar o`z o`rnini topishi joiz.

Har-bir tarixiy davr ijodiy uslubi arxitekturaviy jihatdan o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- funksional jihatdan jamiyat extiyojlarni;
- konstruktiv jihatdan mustahkam va chiroyli bo`lishi;
- iqtisodiy jihatdan kam harajatli va arzon bo`lishi;
- estetik va badiiy jihatdan mutanosib shaklga va chiroyli ko`rinishga ega bo`lishi.

Arxitekturaviy uslub - bu har-bir davr va har-bir xalq arxitekturasiga xos bo`lgan funksional, konstruktiv va badiiy xususiyatlar to`plami.

Arxitekturaviy uslub ma`lum tarixiy davrda rivojlangan va tanazzulga yo`l tutganligi oqibatida boshqa usul bilan almashgan demak, ma`lum tarixiy davrda hos bo`lgan uslub sun`iy ravishda tiklanishi mumkin emas.

Arxitektura bu bir vaqtning o`zida ham texnika ham san`atdir.

Arxitekturada obraz tushunchasi birinchi navbatda bino va inshootlarinig funksional vazifalari bilan bog`liqdir.

Shuningdek, binolar simmetrik yoki assimetrik tuzilishi, asosiy qismlarning bo`rttirib ko`rsatilishi va boshqa bir qancha ifodalanish vositalari orqali ma`lum obrazlarga ega bo`ladi.

Arxitekturada san`atlarni uyg`unlashtirish yoki san`atlar sintezi ham imoratlar obrazini shakllantiradigan asosiy vositalaridan hisoblanadi.

Talabalarni san`atning amaliy–dekorativ xususiyatlari bilan tanishtirish ularni yog`och o`ymakorligi va tosh arxitekturasi ob`ektlarini o`rganishga tayyorlaydi natijada qadriyatli yondashuv asosida bo`lajak arxitektorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga zamin yaratiladi. Bu yangi materialni o`zlashtirishning keyingi bosqichi arxitektura qurilishlarida, ularni ekster`er va inter`erlarida ishlatiladigan dekorativ bezashni o`rganishdir. Demak, arxitektura ob`ektlarni o`rganishning eng muhim vazifalaridan biri o`ymakorlik ijodining o`ziga xos xususiyatlari haqidagi tushunchalarni shakllantirish, arxitektorlik qonuniyatlarini aks ettirish vositalarini aniqlash bilan bog`liq. Bu aks ettirish vositalari yordamida stilning o`ziga xosligi, inshootning masshtablik va monumentalligi, siluetlarni go`zalligi, har xil dekorativ konstruktiv va xaykaltaroshlik lavhalaridan iborat inshootlardagi katta va kichik shakl va ob`ektlarning barkamol uyg`unligi namoyon bo`ladi. Bunda arxitekturaning u yoki bu ob`ekti atrofdagi muhit

–landshaft bilan qanday bog`liq ekanligiga ahamiyat berish muhim. SHu o`rinda aytish joiki Qoraqalpog`iston Respublikasi 245 ta tarixiy va madaniy yodgorliklarga boy bo`lib, ularning 46 tasi arxitektura yodgorliklari, 82 tasi me`moriy yodgorliklarni ko`rishimiz mumkin, ayrimlari jahon merosining oltin fondidan joy olgan. Bu bebaho meros qoraqalpoq xalqining rivojlanish yo`lidagi bag`onalarining oynasi bo`lishi bilan bir qatorda yoshlarning to`g`ilib o`sgan, kindik qoni tomgan tuproqni ezozlay oladigan avlod qilib tarbiyalashda, kasbiy kompetentligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Qadimgi zardushtiyning xram-observatoriyasi- Quy qirilgan qal`a yoki qadimiy grek-rim skul`pturalaridan qolishmaydigan «Tuproq qal`a» bilan «Aqshaxan qal`a» saroylarining ajoyib skul`pturalari bilan devorlardagi freskalari, Buyuk Qitoy devorlaridan oldin barpo etilgan Usturtagi «Daukesken» devori, ertaklardagi er osti saroylarini eslatuvchi «Nazlimxan suluv» kabi ajoyib meroslar tarixi bilan yaqindan tanishgan har bir yosh avlodda g`ururlanishiga, ularning ma`naviy boyishiga, o`z xalqiga sevinch tuyg`usini yana ham boyitishiga shubha yo`q. Mana shu bebaho meros bilan tanishish orqali paydo bo`lgan ajoyib obrazlar har bir talabada «Vatan» tuyg`usining bir bo`lagiga aylanishi, kasbiy kompetentligini rivojlantirishi shubhasiz. Bu arxitekturaviy va me`moriy yodgorliklar asrlar davomidafaqatgina o`tgan avlodlarning ijtimoiy tarixiy hayotini ko`rsatib qolmasdan bizlarga, kelgusi avlodlarga ham murojat etib, ularni ham ma`naviy jihatdan jalb etib qalblarida gumanizm, xalqchilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik tuyg`ularini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, o`rta asr musulmon dunyosida otlari ma`lum Sulton Vays bobo, Abdulla Narinjoniy, SHibily ota, Sulaymon Baqirg`oniy, SHayx Jalil bobo kabi islom dinining irik vakillari tasavvuf shayxlari va zamonamiz etuk shoirlari kabrlarining qoraqalpoq to`prog`ida joylashishining o`zi xalq g`ururi. Bu erdagi Qiyat qal`a va Qirqqiz, Mizdaqhan va Guldirdin, Ayoq va Aydos qal`aga o`xshagan kam uchraydigan arxeologik yodgorliklar va o`lkada qanday qadimiy madaniyat va tsivilizatsiya mavjudligini ko`rsatadi. Ayniqsa, Sulton Vays bobo va SHoh Abbas valiy, Narinjon boba va Hakim ota kabi aziz avliyolarning ug`itlari, Ajiniyoz va Berdax, Kunxoja kabi buyuk shoirlarning bebaho merosi qoraqalpoq xalqining ma`naviy etukligiga asrlar davomida mustahkam poydevor bo`lib kelayotganligi barchamizga ayon va bu buyuk insonlarning ishonchlarini hamisha xurmat bilan tilga olamiz.

Shunday ekan, asrlardan asrlarga saqlanib kelayotgan mana shu boy tarixiy va ma`naviy meros namunalarini Janumiy Orol bo`ylari asrlar davomida qoraqalpoq xalqining ota makoni ekanligining ko`rsatkichi bo`lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. Хожаниязов Г. Малая Кызк кызкала-городище раннеантичного Хорезма// Археология Приаралия, 1990.- Вып.
2. Топрак-кала. Дворец. Отв. Ред. Ю.А.Рапопорт и Е.Е. Неразик.- М., 1984.